

ONLAYN TA'LIM VA AN'ANAVIY SINFD A O'QISHNING FARQLARI.

THE DIFFERENCES BETWEEN ONLINE AND TRADITIONAL LEARNING

Bobomurodova Shahlo Ziyodulla qizi

Samarqand davlat chet tillar inistituti

1-bosqich talabasi

shahloxon37@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada onlayn ta'lim va an'anaviy sinfd a o'qishning farqlari yoritilgan. Har ikkala ta'lim shaklining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi hamda zamonaviy texnologiyaning ta'lim jarayoniga ta'siri haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *onlayn ta'lim, an'anaviy o'qish, ta'lim tizimi*

Kirish: Hozirgi globallashtirish dunyoda, ta'lim inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy jamiyatda ta'lim nafaqat bilim olish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish va kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlash vositasi hisoblanadi. So'ngi yillarda texnologiyalar rivojlanishi bilan o'qitish tizimi ham o'zgardi. Bugungi kunda o'quvchilar maktab va universitetlarda ta'lim olish bilan birga internet orqali ham bilim olishlari mumkin. Bundan tashqari, onlayn ta'lim moliyaviy jihatdan ham qulay va onlayn ta'limning yana bir katta afzalligi bu- davlatlararo ta'lim imkoniyati. Talabalar endi O'zbekistondan turib AQSH, Yevropa mamlakatlaridagi universitetlar dasturlarida o'qishlari mumkin.

Onlayn ta'limning eng katta yutug'idan biri-bu moslashuvchanlikdir. O'quvchi darslarni o'ziga qulay bo'lgan vaqtda o'zlashtirish imkoniga ega boladi. U yozib olingan darslarni ko'radi yoki darsni qayta tahlil qiladi. Onlayn ta'lim o'quvchiga shaxsiy hayot, ish va o'qish o'rtasida muvozanat saqlash imkoniyatini beradi. Biroq, ta'limning bu shaklida yuzma-yuz muloqot kam bo'ladi. Shu sababli, ba'zi o'quvchilarda muloqot qobiliyati va diqqatni jamlash salohiyati pasayishi mumkin. Onlayn ta'limning yana bir muhim afzalligi arzonlikdir. Talabalar transport va yotoqxona uchun qo'shimcha harajat qilishmaydi. Onlayn platformalar orqali o'quvchi o'z bilim darajasiga mos o'quv dasturlarida ta'lim olish imkoniyati bo'ladi. COVID-19 pandemiyasi butun dunyo ta'lim tizimida onlayn ta'limning ahamiyatini yanada oshirdi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra COVID-19 pandemiyasi davrida 1.5 milliarddan ortiq o'quvchi onlayn ta'limdan foydalangan. 2020-yilda joriy qilingan karantin davrida O'zbekistondagi barcha ta'lim muassasalari onlayn rejimga o'tdi. Bu esa o'quvchilar uchun raqamli texnologiyani tez

o'zlashtirish imkoniyatini berdi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn ta'limda muvaffaqiyat talabalarning o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga bog'liq.

An'anaviy ta'lim shaklida esa o'qituvchi va o'quvchi orasida to'g'ridan to'g'ri aloqa mavjud bo'ladi. Bu o'quvchilarga savol berish va tushunmagan joyini so'rash imkonini beradi. Ularda ijtimoiy kirishimlilik qobiliyati yuqori bo'ladi va jamoa bilan ishlashda ayrim muammolarga duch kelmaydi. An'anaviy ta'lim o'quvchilarga nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy mahorat va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. An'anaviy ta'limning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Laboratoriya mashg'ulotlari va loyihalar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'lishadi. Maktab va universitetlar o'quvchiga ijtimoiy mahoratni- jamoada ishlash, o'z fikrini erkin bildirish va munozara qilish kabi muhim ko'nikmalarni ham o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, onlayn va an'anaviy o'qishning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Onlayn ta'lim moslashuvchanlikni ta'minlasa, sinfdag ta'lim jonli muloqot imkonini beradi. Eng muhimi o'quvchining harakatchanligi va intilluvchanligidir. Onlayn va an'anaviy ta'lim o'ratsida tanlov qilish talabaning maqsadlari va ehtiyojlariga bog'liq. Ba'zi talabalar uchun ta'limning moslashuvchanligi muhim bo'lsa, ayrimlar uchun ijtimoiy faollik muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xalq ta'lim vazirligi.(2023). "Zamonaviy ta'lim texnologiyalar va ularning samaradorligi" Toshkent o'qituvchi nashriyoti".
2. Karimov.I. (2021). "Ta'lim tizimida inovatsion yondashuvlar.
3. Abdullayeva.M. (2022). "Raqamli pedagogika onlayn ta'limning nazariy asoslari".